
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Gidrogeologik xulosa berish

Xulosa beriladigan ob'ekt (harakat, faoliyat, tovar va boshqalar):

Hududning yer osti suvlari holati

Xulosa olishni so'rab murojaat qiladigan shaxslar toifasi:

Yuridik va jismoniy shaxslar

Xulosani berishga vakolatli organ (lar):

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "O'zbekgidrogeologiya" davlat muassasasi

Xulosa olish uchun talab etiladigan ma'lumotlar va hujjatlar:

a) yuridik shaxs uchun — nomi, STIR, pochta manzili, elektron pochta manzili (mavjud bo'lsa), xizmat ko'rsatuvchi bankning nomi va hisobvarag'i, telefon raqami;

b) jismoniy shaxs uchun — F.I.Sh., JShShIR, pochta manzili, elektron pochta manzili (mavjud bo'lsa), telefon raqami;

v) ko'rsatilgan hududning aniq joyi;

g) loyihalananayotgan quduqning geografik joylashish koordinatalari:

shimoliy kenglik;

sharqiy uzunlik;

d) yer osti suvini olishdan maqsad:

xo'jalik-ichimlik;

ishlab chiqarish-texnik (sanoat);

qishloq xo'jaligi (sug'orish);

zax qochirish (drenaj);

davolash-balneologik;

e) yer osti suviga bo'lgan talab hajmi (m³/kun).

Arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:

Yig'im undirilmaydi

Xulosa berganlik uchun undiriladigan yig'im miqdori:

Bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari

Xulosa berish bo'yicha arizalarni ko'rib chiqish muddati:

8 ish kuni

Xulosa berishning talab va mezonlari:

Ko'rsatilgan hududda yer osti suvlari holatini va tegishli quduq burg'lashning maqsadga muvofiqligi (er osti suvlari zaxiralarining mavjudligi, suv chiqarish imkoniyati, sifat ko'rsatkichlari kabilar)

Xulosaning amal qilish muddati:

2 yil

Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.03.2024 yildagi 169-son qarori

Abdumannon Umriddinov - So'x tumani adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi sho'ba mudiri

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-06-20 16:04:05